



JUN TOLASIDAN GILAM ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17656652>

*ass. Batirbaeva Sh.S, dots. Nazarova D.T, prof. S.A.Xamraeva
talabalar Jo'raqulova S.A, Solijonov S.Z.*

*Toshkent To'qimachilik va yengil sanoat institute
(90)958-17-84 dilrabo77@gmail.com*

ANNOTATSIYA. *Ushbu maqolada mahalliy xom ashyodan samarali foydalanish hisobiga raqobatbardosh, O'zbekiston iqlim sharoitiga to'liq mos keladigan, eksplutasion xususiyati yuqori bo'lgan jun gilam to'qish ishlab chiqarishga bag'ishlangan.*

АННОТАЦИЯ. *Статья посвящена производству конкурентоспособных шерстяных ковров, полностью соответствующих климатическим условиям Узбекистана и обладают высокими эксплуатационными свойствами за счет эффективного использования местного сырья.*

ANNOTATION. *This article explores the production of competitive wool carpets that are fully compatible with Uzbekistan's climatic conditions and possess high performance properties through the efficient use of local raw materials.*

KALIT SO'ZLAR: *Gilam, tabiiy tola, jun tolas.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Ковер, натуральное волокно, шерстяное волокно.*

KEY WORDS: *Carpet, natural fiber, wool fiber.*

Respublikada qo'lda to'qilgan gilamchilik sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida Mamlakatimizda milliy hunarmandchilik, xalq amaliy san'atini, shu jumladan tarixiy an'analarimizni o'zida mujassam etgan, ota-bobolarimizdan qadimiy meros bo'lib, avlodan-avlodga o'tib kelayotgan ipak va jundan qo'lda gilam to'qish sohasini rivojlantirish va noyob san'at asari hisoblanadigan ushbu gilamlarni bozor talablariga uyg'unlashtirish, band bo'lmagan aholini, ayniqsa yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalarni mazkur sohaga keng jalb etish orqali ularning ish bilan bandligini ta'minlash

maqsadida: 2021-yil 1-yanvardan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan chorvachilik mahsulotlari yetishtiruvchi xo'jaliklarga ular tomonidan qo'lda gilam to'qishga ixtisoslashgan hunarmandlar va tashkilotlarga sotilgan har bir kilogramm "merinos" zotli qo'y va "angor" zotli echkilarning juni uchun ikki ming so'mdan subsidiyalar ajratiladi. Bunda, subsidiya berish Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi; Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo va Toshkent viloyatlari hokimliklari ikki oy muddatda "merinos"



zotli qo'y va "angor" zotli echkilar yetishtirish xo'jaliklariga Jizzax viloyatidan 2 ming gektar, Qashqadaryo viloyatidan 3 ming gektar, Namangan viloyatidan 1 ming gektar, Samarqand viloyatidan 2 ming gektar, Surxondaryo viloyatidan 3 ming gektar va Toshkent viloyatidan 2 ming gektar yaylov yer maydonlari ajratilishini ta'minlasin.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Pillachilik va qorako'lchilikni rivojlantirish qo'mitasi bilan birgalikda 2021-yil 1-yanvarga qadar tog'oldi yaylovlar uchun qurg'oqchilikka chidamli ozuqa ekinlarning birlamchi urug'chiligini tashkil etsin.

Gilamchilik —gilam to'qish kasbi, badiiy hunarmandlik sohasi. Qadimdan chorvachilik bilan shug'ullanadigan ko'chmanchi qabilalar orasida keng tarqalgan. O'simlik (paxta, zig'ir, jut) tolasi, jun (qo'y, echki, tuya juni) dangina tayyorlangan. Gilam to'qish uchun qirqilgan junlar yuvilib tozalanadi, temir taroqlarda taraladi, taralgan junlardan ip yigiriladi. Iplar turli tabiiy bo'yoqlar bilan bo'yaladi. Shuning uchun gilam ranglari o'zgarmaydi va o'zining sifatini yo'qotmaydi. Hozirda sun'iy tolalardan ham to'qilmoqda. Gilamchilik yer bag'irlab yotiq (gorizontal) va tik (vertikal) o'rnatilgan dastgohlarda to'qiladi. gilamchilik rivojlangan joylarda to'quv dastgoqlari ancha mukammallashtirilgan va bir necha to'quvchi yonma-yon o'tirib birdaniga to'qiyveradigan keng o'q (g'altak)li xillari yaratilgan. Gilamdo'z usta naqsh

mujassamotini yodaki yoki nusxa asosida to'qiydi. To'qilish usuliga ko'ra patli va patsiz gilam turlari farqlanadi.[1]

Gilam to'qish jarayonida asosiy xom ashyo sifatida tabiiy jun ishlatiladi. Jun — bu hayvonot kelib chiqishiga ega tabiiy tola bo'lib, asosan keratin oqsilidan tashkil topgan. Uning mexanik chidamliligi, egila olish qobiliyati va issiqlikni saqlab turish xususiyatlari junni gilam ishlab chiqarish uchun eng munosib materialga aylantiradi.

Junning sifat ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:

- tola qalinligi (mikronlarda o'lchanadi),
- tolaning uzunligi va qattiqligi,
- namlik siqish qobiliyati,
- bo'yoqni singdirish darajasi.

Qo'y junining bu xususiyatlari undan tayyorlangan iplarning barqarorligini va gilamning uzoq muddatli xizmat qilishini ta'minlaydi. Jun gilam — bu tabiiy materialdan tayyorlangan, milliy hunarmandchilikning eng qadimiy va nafis turlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat uyni bezaydi, balki xalqning madaniy merosi, urf-odatlarini va san'atini ham namoyon etadi. Jun gilam to'qish jarayoni mehnattalab, ammo juda nozik va ijodiy ish bo'lib, har bir bosqichi mahorati va sabr-toqatni talab qiladi.[2]

Gilam to'qishning birinchi bosqichi — jun tayyorlash. Bu bosqich quyidagi vazifalar amalga oshiriladi bunda birinchi navbatda Qirqish (jun olish): Qo'ylarni bahor yoki yoz oylarida qirqish orqali yangi, toza jun olinadi undan so'ngi



qirqib olingan junlarni tozalash ya'ni chang, tuproq va boshqa qo'shimchalar ajratib olinadi, so'ngra yuvish va quritish bunda jun iliq suv va tabiiy sovun yordamida yuviladi, so'ng quyoshda quritiladi oxirgi vazifalardan bu tozalangan, yuvilgan jun maxsulotini taroqlash va ip tortirish Quritilgan jun maxsus to'rlar yordamida taraladi va ip shakliga keltiriladi. Bu jarayonda jun iplarining qalinligi va bir xilligi ta'minlanadi. Olingan tayyor jun iplarimizni bo'yash jarayoniga o'tkazamiz. Gilamning go'zalligi va rangovorligi jun iplarining bo'yoq sifatiga bog'liq. [3]

1. Tabiiy bo'yoqlar: Ilgari gilamchilar o'simliklar (piyoz qabig'i, anor po'sti, indigo, tog' o'tlari) va mineral pigmentlardan foydalangan.

2. Zamonaviy bo'yoqlar: Hozirgi kunda kimyoviy bo'yoqlar ham ishlatiladi, ammo tabiiy bo'yoqlar gilamga o'ziga xos nafas va barqarorlik beradi. Bo'yash jarayonida iplar turli ranglarga bo'yalib, keyin soyabozlikdan himoyalash uchun quruq joyda saqlanadi.

Jun gilam to'qish san'ati insoniyat madaniyatining eng qadimiy hunarmandchilik turlaridan biri hisoblanadi. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, jun iplaridan to'qilgan ilk gilamlar miloddan avvalgi VI–V asrlarga to'g'ri keladi. O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston hududida jun gilam to'qish san'ati xalqning turmush tarzi, estetik qarashlari va milliy an'analari bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan. Hozirgi kunda jun gilamlar nafaqat maishiy ehtiyojlarni

qondirish, balki milliy madaniy merosni asrash, turizm sohasini rivojlantirish hamda mahalliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi.[4]

Gilam to'qish jarayoni asosan qo'l stanogi (do'na) yoki mexanik to'quv uskunalari yordamida amalga oshiriladi. Unda asos iplarni tortish — gilam asosini tashkil etuvchi uzunasiga zamin tanda iplar belgilangan tartibda stanokka o'rnatiladi. Simga to'qish (tugunlash) — naqsh bo'yicha rangli iplar asos iplarga qo'l bilan tugunlanadi. To'qish usuliga qarab, "Turkmancha", "Persiyacha", "Qoraqalpoqcha" kabi uslublar farqlanadi. Keyingi jarayon bu siqish va tekislash — har bir qatlam maxsus to'sin yoki tishli asbob yordamida siqiladi, natijada gilamning tuzilishi zich va barqaror bo'ladi. Gilamni ajratish va qayta ishlash — tugallangan gilam stanokdan olinadi, ortiqcha junlar qisqartiriladi, yuviladi va quritiladi.

Jun gilam to'qish san'ati xalq hunarmandchiligi, biotexnologiya, kimyo va dizayn sohalari bilan uzviy bog'liq bo'lgan ko'p tarmoqli faoliyat hisoblanadi. Bu hunarni ilmiy jihatdan tadqiq etish jun tolalarining xususiyatlarini yaxshilash, tabiiy bo'yoqlardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda milliy mahsulotlarni jahon bozorida raqobatbardosh qilish imkonini yaratadi.

Shu sababli, jun gilam to'qish jarayonini ilmiy va texnologik nuqtai nazardan rivojlantirish nafaqat milliy madaniy merosni asrash, balki iqtisodiy



rivojlanishning muhim omili sifatida ham ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR:

1. Qurbonova, M. (2017). O‘zbek xalq amaliy san'ati tarixi. Toshkent: Akadem nashr.
2. Raximova, D. (2020). “O‘zbekistonda gilamchilik an'analari va ularning zamonaviy rivojlanishi.” Madaniyat va san'at jurnali, №3, 45–52.
3. Ibragimov, A. (2015). Tabiiy tolalar texnologiyasi. Toshkent: TTI nashriyoti.
4. Hasani H., Mirjalili M., Ghoranneviss M.(2018). “Wool fiber surface modification and its influence on dyeability.” Textile Research Journal, 88(5), 600–610.